



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 5 (7)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**5**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

|                                                                                                                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Minojiddinov A.A.</b> Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari .....                                           | 8   |
| <b>Mirzayev A.T., Dilnozaxon M.</b> O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....                            | 12  |
| <b>Shavkatov A.Sh.</b> O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....                                                                      | 16  |
| <b>Махамаджанов М.М.</b> Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....                                              | 20  |
| <b>Sativaldiyeva G.X.</b> IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....                                                                                | 24  |
| <b>Ismailov X.M.</b> Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....                                                           | 28  |
| <b>Yusubov I.I.</b> Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....                                                                                | 32  |
| <b>Saidaxmedov N.X.</b> Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....                                                         | 35  |
| <b>Istamqulov D.Q., Danyarova F.B.</b> Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....                                                     | 40  |
| <b>Aipova I.I.</b> Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....                                                                                         | 43  |
| <b>Mirzaraximova A.A.</b> Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....                                                             | 49  |
| <b>Xalmirzaev A.A.</b> Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....                                              | 53  |
| <b>Sidikov Z.A.</b> Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....                                                             | 59  |
| <b>Usmanova N.Y.</b> Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....                                                                | 63  |
| <b>Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A.</b> Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....                       | 67  |
| <b>Raximova D.S.</b> Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....                                          | 70  |
| <b>Narzullayeva X.A.</b> Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....                                                                                      | 76  |
| <b>Muxitdinov Sh.Z.</b> Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....                                                             | 84  |
| <b>No‘monov O.O‘.</b> Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....                            | 88  |
| <b>Yeshimbetov U.X.</b> O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....                                           | 92  |
| <b>Raximova K.N.</b> Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari .....                                                        | 97  |
| <b>Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х.</b> Ислоний банкларнинг ишлаш таомойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....                                           | 100 |
| <b>Sattarov R.A.</b> An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan)..... | 107 |
| <b>Farmanov J.Z.</b> Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish .....                                                    | 111 |
| <b>Qurbonov A.B.</b> Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....                            | 114 |
| <b>Тоштемиров Т.Т.</b> Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....                                             | 119 |
| <b>Arziyev M.A.</b> O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....                                       | 122 |
| <b>Maxkamova S.Sh.</b> Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....                                            | 127 |
| <b>Olimova N.X.</b> Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst .....                                                               | 137 |
| <b>Zaylobitdinova H.X.</b> Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....                                                              | 141 |
| <b>Komilov A.I.</b> Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....                                                                                      | 145 |

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil**

|                                                                                                                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sotvoldiyev N.N.</b> Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....                                                                                | 149 |
| <b>O'rinov A.A.</b> Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....                                                                   | 154 |
| <b>Ahmadaliyeva R.A.</b> O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....                                                                                                        | 158 |
| <b>Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F.</b> The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....                                                   | 162 |
| <b>Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M.</b> Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....                                                                           | 167 |
| <b>Qobilov H., Uzganbayeva D.T.</b> O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....           | 170 |
| <b>Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T.</b> O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....                                      | 174 |
| <b>Маматкулов З.Ш.</b> Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....                                                 | 179 |
| <b>Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T.</b> Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....                                                                                       | 185 |
| <b>Qosimov A.S.</b> Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....                                                            | 189 |
| <b>Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S.</b> Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....                                                                           | 192 |
| <b>Saidkarimova M.I., Sobirov O.A.</b> Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....                                                                                               | 199 |
| <b>Saidova M.J.</b> Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida) .....                                                                       | 203 |
| <b>Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф.</b> Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков..... | 206 |
| <b>Burxonov J.X., Soliyev I.I.</b> Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....                                                                          | 213 |
| <b>Xaitbaev J.O.</b> Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....                                                        | 217 |
| <b>Saidov U.S.</b> Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....                                                                        | 221 |
| <b>Nurmaxanmadov N.B.</b> Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....                                                                                                  | 224 |
| <b>Xudayberdiyev K.</b> Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....                                   | 230 |
| <b>Xolxo'jayev E.G'.</b> Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili. ....                                                               | 234 |
| <b>Rustamova F.A.</b> Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....                                        | 238 |
| <b>Ikromov A.</b> Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....                                                           | 241 |
| <b>Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q.</b> Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....                                                | 245 |
| <b>Maraimov I.R.</b> O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....                                                                                              | 251 |
| <b>Yusupov Sh.B.</b> Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....                              | 256 |
| <b>Chintemirova D.Sh.</b> Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....                                                                         | 260 |
| <b>Xusanova Z.R.</b> Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....                                                                   | 265 |
| <b>Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I.</b> Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....                                                                                                         | 270 |
| <b>Tajiboyev S.O.</b> G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....                                                                                                                                   | 275 |
| <b>Xaydarov M., Baxtiyorov I.</b> Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....                                                              | 279 |
| <b>Ким Т.В.,</b> «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....                                                       | 286 |

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil**

|                                                                                                                                                                        |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Saydullayeva R.U.</b> Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....                              | 292 |
| <b>Galatov A.A., Karimova G.A.</b> O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili..... | 296 |
| <b>Tursunov F.U.</b> Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..                                | 300 |
| <b>Yakhshiboev R.E.</b> Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....                                                                              | 303 |
| <b>Ergashev S.A.</b> Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....                               | 307 |
| <b>Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф.</b> Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....                                  | 311 |
| <b>Sayfullayev J.</b> Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....                                    | 316 |
| <b>Sirojiddinov K.I.</b> Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....                                                                                       | 319 |
| <b>Ibraximov X.S.</b> Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....           | 324 |
| <b>Tajibayev K.Q.</b> Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....                                         | 328 |
| <b>Abdulxakimov Z.T.</b> Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....                                                                        | 332 |
| <b>Pazilidinov M.M.</b> Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....                                | 337 |
| <b>Жураева М.З., Ахмедов Р.М.</b> Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....                                              | 341 |
| <b>Ахмедов Р.М.</b> Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....                                   | 348 |
| <b>Mamasiddiqova F.X.</b> Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....                             | 353 |
| <b>To‘rayev A.A.</b> Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari. ....                           | 358 |
| <b>Солиев И.И.</b> Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....                                | 362 |
| <b>Xasanov S.Q.</b> Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....                                                          | 365 |
| <b>Murodov A.</b> Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....                                                            | 369 |
| <b>Карабаев Р.З.</b> Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....                                                                                     | 374 |
| <b>Rasulova Sh.A.</b> Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....                                         | 378 |
| <b>Salimov A.F., Rasulova Sh.A.</b> Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....                                                                          | 381 |
| <b>Sattarova G.X.</b> O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....                               | 385 |
| <b>Муродхўжаева Ф.М.</b> Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....     | 389 |
| <b>Yoqubjonov R.R.</b> Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....                                                        | 396 |
| <b>Nasritdinov B.X.</b> Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida .....                                               | 400 |
| <b>Abdurazzoqov H.A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....                                                 | 406 |
| <b>Turgunov M.M., Soliyev I.I.</b> Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....                                                  | 411 |
| <b>Kuzimuratova D.M.</b> O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....                             | 414 |
| <b>Soyibjonov I.S.</b> Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....                                          | 419 |
| <b>Axmadjanov I.I.</b> Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....                               | 423 |
| <b>Odinayev G‘.J.</b> Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....                                                              | 427 |
| <b>Abduvahobov V.B.</b> Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....                  | 430 |
| <b>Қўзиёва Н.Н.</b> Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....                                                                                        | 435 |

**MEHNAT BOZORINI TEXNOLOGIK TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA  
ISHCHI KUCHI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI**

**МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В  
УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ РЫНКА ТРУДА**

**MECHANISMS FOR INCREASING LABOR FORCE COMPETITIVENESS IN THE  
CONTEXT OF TECHNOLOGICAL TRANSFORMATION OF THE LABOR MARKET**

**To‘rayev Asrorbek Akmaljon o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning iqtisodiyot rivojiga ta’siri, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi o‘rni, hamda biznes va mehnat bozori rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va innovatsion yechimlarning iqtisodiy o‘rishni jadallashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada innovatsiyalar natijasida yangi ish o‘rinlari yaratilishi, tadbirkorlik faoliyatidagi samaradorlikning oshishi masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari innovatsion texnologiyalar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsion texnologiyalar, iqtisodiy rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, iqtisodiy o‘rish, mehnat bozori, ishsizlik, Ouken qonuni, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt, raqobatbardoshlik.

В данной статье рассматривается влияние инновационных технологий на экономическое развитие, их роль в управлении производством, а также их воздействие на бизнес и рынок труда. Экономическое развитие, автоматизация и решение инновационных задач. В статье рассматривается создание новых рабочих мест в результате инноваций, расширение предпринимательской деятельности и проблемы эффективности государственного управления. Источники развития. Инновационные технологии являются важным фактором, способствующим повышению управляемости экономики.

**Ключевые слова:** Инновационные технологии, экономика, инновации, экономический рост, рынок труда, безработица, закон Окуна, автоматизация, искусственный интеллект, правовая устойчивость.

This article discusses the impact of innovative technologies on economic development, their role in controlling production, and their impact on the business and labor market. Economic development, automation and solving innovative problems. The article considers the creation of new jobs as a result of innovations, the expansion of entrepreneurial activity, and the problems of efficiency in public administration. Sources of development Innovative technology is an important factor that helps to increase the manageability of the economy.

**Keywords:** Innovative technology, economy, innovation, economic growth, labor market, unemployment, Okun's law, automation, artificial intelligence, legal sustainability.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanish innovatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hamda boshqaruv tizimlarida muhim o‘zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlarining keng joriy etilishi iqtisodiyot samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion texnologiya - bu ilmiy-texnik yutuqlar asosida yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan texnologiyalarni yaratish, ularni ishlab chiqarish va xizmat

ko‘rsatish jarayonlariga joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga qaratilgan kompleks jarayondir. Innovatsiyalar resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va yangi bozor imkoniyatlarini yaratish orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlaydi. Bugungi kunda davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat innovatsion salohiyat darajasi bilan belgilanadi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llayotgan mamlakatlar yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarib, global bozorda ustunlikka erishmoqda. Shu sababli innovatsiyalarni rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishiga aylangan[10].

Texnik taraqqiyot va raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga jadal kirib kelishi mehnat jarayonlarining mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirib, inson kapitaliga bo‘lgan talabni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi. Bugungi kunda mehnat jarayonlariga texnik yangiliklarning ta‘siri nafaqat ishlab chiqarish unumdorligini oshirishda, balki an‘anaviy mehnat funksiyalarining intellektual va texnik nazorat vazifalari bilan almashishida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu muammoning dolzarbligi global raqobatbardoshlik indeksida (GCI) mamlakatning o‘rni bevosita texnologik tayyorgarlik va mehnat bozori samaradorligi darajasiga bog‘liqligi bilan izohlanadi. Innovatsion texnologiyalar zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirib, resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi hamda korxonalar faoliyatining unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. Yangi texnologiyalarning joriy etilishi mahsulot tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarish tezligini oshirish va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada korxonalar bozorda raqobatbardosh bo‘lib, ichki va tashqi bozorlarda o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalar iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirib, yangi biznes yo‘nalishlari va startap loyihalarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi, bu esa iqtisodiyot tarkibining modernizatsiyalashuviga olib keladi[11].

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi esa iqtisodiy munosabatlarning yangi shaklini yuzaga keltirib, elektron savdo, onlayn bank xizmatlari va masofaviy ish tizimlarining keng tarqalishiga imkon yaratadi. Bu jarayon vaqt va xarajatlarni tejash bilan birga iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshiradi hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritishni yanada qulaylashtiradi. Innovatsiyalar yangi g‘oyalar asosida zamonaviy texnologik yechimlarni yaratib, iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini tezlashtiradi, ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi va investitsiyalar oqimini ko‘paytiradi. Iqtisodiy o‘sish natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ortadi, davlat byudjeti daromadlari ko‘payadi hamda ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yuzaga keladi.

#### **1-jadval**

**Texnologik transformatsiya va mehnat ko‘rsatkichlari tahlili**

| <b>Ko‘rsatkich</b>                            | <b>Mehnat iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan talqin</b>                                       | <b>Raqobatbardoshlikka ta'siri</b>                                                        |
|-----------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Raqamli iqtisodiyot hissasi (10% -15%)</b> | Yuqori texnologik ish o‘rinlari ulushining ortishi.                                       | Ishchi kuchidan raqamli ko‘nikmalarga (digital skills) ega bo‘lishni talab etadi.         |
| <b>Elektron tijorat o‘sishi (16% - 40%)</b>   | Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida an'anaviy mehnatning raqamli mehnat bilan almashishi. | Xodimlarning masofaviy ishlash va platformali iqtisodiyotga moslashuvchanligini oshiradi. |
| <b>Internet foydalanuvchilari (7% - 15%)</b>  | Mehnat resurslarining axborot oqimidan foydalanish imkoniyati kengayishi.                 | Axborot qidirish va tahlil qilish bo‘yicha bazaviy kompetensiyalarning shakllanishi.      |
| <b>Mobil internet (23% - 39%)</b>             | Mehnat mobiligining ortishi va "istalgan joyda ishlash" konsepsiyasining rivojlanishi.    | Ishchi kuchining texnologik tayyorgarlik (Technological Readiness) darajasini belgilaydi. |

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil**

|                                             |                                                                                     |                                                                                                    |
|---------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Sanoat ishlab chiqarishi (10% - 18%)</b> | Sanoatda avtomatlashtirish darajasining ortishi va mehnat unumdorligining o‘shishi. | Jismoniy mehnatdan intellektual va nazorat funksiyalariga o‘tish zarurati.                         |
| <b>Onlayn xizmatlar (60% - 150%)</b>        | Xizmat ko‘rsatish mehnatining to‘liq raqamli transformatsiyasi.                     | Ishchi kuchi raqobatbardoshligining hal qiluvchi omili - interaktiv va raqamli muloqot ko‘nikmasi. |

Avtomatlashgan texnologiyalar inson mehnatini yengillashtirib, ishlab chiqarish jarayonlarida inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi va uzluksiz faoliyat yuritish imkonini beradi. Bu esa korxonalarda samaradorlikning oshishiga va mahsulot yetkazib berish tezligining ortishiga olib keladi. Sun‘iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma‘lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilib, aniq prognozlar tuzish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi. U tibbiyot, ta‘lim, moliya va sanoat kabi ko‘plab sohalarda yangi xizmat turlarini shakllantirib, innovatsion rivojlanishni yanada jadallashtiradi[12].

Natijada iqtisodiyotda raqobatbardoshlik darajasi oshib, mahsulot va xizmatlar sifati yaxshilanadi, bozor muhitida sog‘lom raqobat shakllanadi hamda iste‘molchilar uchun keng tanlov imkoniyati yaratiladi.

Innovation texnologiyalarni keng qo‘llash mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ta‘minlab, global iqtisodiy makonda mustahkam o‘rin egallashga xizmat qiladi. Shu sababli innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga joriy etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Texnika va texnologiyalarning rivojlanishi mehnat bozori hamda ishsizlik jarayonlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Zamonaviy texnologiyalarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasiga joriy etilishi mehnat unumdorligini oshirib, ish jarayonlarini tezlashtiradi hamda korxonalar faoliyatining samaradorligini kuchaytiradi. Natijada yangi texnologiyalarni boshqarish, dasturlash va texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq yangi kasb va mutaxassisliklarga talab ortadi, bu esa mehnat bozorining tarkibiy jihatdan yangilanishiga olib keladi[13].

Biroq texnika va avtomatlashtirish jarayonlari ayrim an‘anaviy kasblarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin. Masalan, qo‘lda bajariladigan ishlab chiqarish ishlari robotlashtirilgan tizimlar orqali amalga oshirilganda past malakali ishchilarga talab qisqaradi va vaqtinchalik ishsizlik yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Bu holat asosan strukturaviy ishsizlikni keltirib chiqaradi, ya‘ni mavjud ishchi kuchi malakasi yangi texnologik talablar bilan mos kelmay qoladi. Buning natijasida davlatda ishsizlik darajasi oshish ehtimoli yuqori bo‘lishi mumkin. Texnologiyalar iqtisodiy o‘shish uchun katta yordam berishiga qaramay, uning ishsizlik darajasiga ta‘siri iqtisodiyotni qiyin ahvolga solib qo‘yishi mumkin. World economic forum saytida “hozirgi kunda 50-60 yoshli insonlar uchun bu texnologiyalar muammo tug‘dirmasligi mumkin, lekin 20-28 yoshli insonlar o‘rtasida texnologiyalar katta xavf bo‘lishi kutilyapti. Chunki, hozir innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish sohasida ham qurulish sohasida ham bir necha barobar inson kabi ishchi kuchidan samaraliroq”. Yana shuni aytib joizki- agar insonlar o‘z ish joyidan ayrilsalar, ularga taklif qilinayotgan arzon tovarlarni iste‘mol qilish uchun ham kuchlari yetmaydi Ouken qonuniga ko‘ra, ishsizlik darajasi oshishi yalpi ichki mahsulotning kamayishiga sabab bo‘ladi, chunki, aholida yetarli pul mablag‘lari bo‘lmagani uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olishga kuchi yetmaydi, bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri yalpi ichki mahsulot kamayishiga olib keladi. Ouken qonuniga ko‘ra- qisqa muddatli ishsizlik darajasining o‘shishi bilan ishlab chiqarish hajmidagi yo‘qotishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydigan qonun[14]. Amerikalik iqtisodchi Artur Ouken (1929- 1979) aniqlangan. Bu qonunga ko‘ra, yalpi milliy mahsulotning yillik o‘shishi 2,5%ni tashkil etganda ishsizlik darajasi amalda doimiy bo‘lib qoladi. Ishsizlik darajasidagi o‘zgarishlarga qarab yalpi milliy mahsulot real hajmining potensial hajmiga nisbati o‘zgarishlari (elastikligi) doimiy va taxminan 3% ga teng. Ishsizlikning 1% ga o‘shishi real ishlab chiqarish hajmida 3% ga teng qisqarishga olib keladi yoki aksincha[15].

Mehnat bozorini transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi integratsiyalashgan mexanizmlarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

- Institutsional va boshqaruv mexanizmlari. Bu menejerlardan strategik o‘zgarishlarni boshqarishning to‘rtta muhim ko‘nikmasini (resurslarni taqsimlash, monitoring, tashkil etish va o‘zaro hamkorlik) talab etadi.

- Texnologik va metodologik vositalar. Ishchi kuchini yangi texnologik jarayonlarga tayyorlash va korxonalarni modernizatsiyalash vaqt va mehnat sarfini 15-20% gacha tejash imkonini beradi.

- Sifat va standartlashtirish. Mehnat resurslarining xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlash uchun ISO 9000:2000 standartlari asosida sifat menejmenti tizimini joriy etish va ISO 10011 bo‘yicha tizimli sifat auditini o‘tkazish zarur.

Texnik taraqqiyot sharoitida mehnat unumdorligining o‘sishi faqatgina yangi uskunalarni o‘rnatish bilan emas, balki inson kapitalini ushbu texnologiyalarga moslashtirish, ishchi kuchini qayta tayyorlash va boshqaruvning zamonaviy grafoanalitik metodlarini (operogramma, tarmoqli modellar) keng joriy etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa mamlakatning GCI reytingidagi ko‘rsatkichlarini barqaror yaxshilash va milliy iqtisodiyotning innovatsion jozibadorligini oshirishning asosiy omilidir. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, texnologik taraqqiyot uzoq muddatda bandlik darajasining oshishiga ham xizmat qiladi. Yangi texnologiyalar asosida IT sohasi, raqamli xizmatlar, elektron savdo, logistika va innovatsion biznes yo‘nalishlari rivojlanib, yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Natijada mehnat bozori yanada moslashuvchan va bilimga asoslangan shaklga o‘tadi. Ya’ni, mehnat bozorida raqobat kuchaya boshlaydi, har bir ishchi texnologiyalar bilan ishlashni o‘rgana boshlaydi. Mehnat bozoridagi ayrim kasblar yo‘q bo‘lib ketishi aniq bo‘ladi. Masalan, qadoqlovchi kishi o‘rniga texnika ishlashni boshlaydi. Yaqin kelajakda esa bu innovatsion texnologiyalar bank, ta’lim sohalariga kirib kela boshlaydi va mehnat bozorida ishchilar orasida raqobat bo‘lgan bir vaqtda, ishchilar robotlar bilan ham raqobatlashishga to‘g‘ri keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2022. - 416 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 -2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. - T.: "FAN", 2019. – 592 b.
4. Sirojiddinov K.I. Tadbirkorlik sub’ektlari raqobatbardoshligini baholash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Namangan, 2022.
5. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. - World Economic Forum, Geneva, 2016. - 172 p.
6. The Global Competitiveness Report 2017–2018. World Economic Forum, 2017.
7. Sirojiddinov K.I. Mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarishda raqamli texnologiyalarning o‘rni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. - 2021.
8. International Standard ISO 9000:2000. Quality management systems - Fundamentals and vocabulary.
9. ISO 10011-1. Guidelines for auditing quality systems - Part 1: Auditing.
10. Aliyev A.A. Innovatsion texnologiyalarning iqtisodiyotga ta’siri // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - 2023. - № 4. - B. 25–31
11. Oberdabernig D. A. Employment effects of innovation in developing countries: A summary. - Bern: World Trade Institute, University of Bern, 2016. - 39 p. - R4D Working Paper 2016/2. - URL:[https://www.wti.org/media/filer\\_public/d5/f9/d5f9097b-8c57-49df-a9d5-69954c28408e/wp\\_2016\\_02\\_employment\\_effects\\_of\\_innovation.pdf](https://www.wti.org/media/filer_public/d5/f9/d5f9097b-8c57-49df-a9d5-69954c28408e/wp_2016_02_employment_effects_of_innovation.pdf)
12. Mankiw N. G. Principles of Economics. - 6th ed. - Mason, OH: South-Western Cengage Learning, 2012. - 856 p.